

Sharipova Sarvinoz Sayid qizi

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti 3-kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ona tili darslarida esse va inshodan foydalanish texnologiyasining o'quvchilar nutqini rivojlantirishdagi ahamiyati ochib beriladi. Esse va insholar ustida ishlash orqali o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish yo'llari ko'rsatiladi. Ona tili darslarida esse va inshodan foydalanish nutq madaniyatini yuksaltirish hamda fikrlashni rivojlantirishga xizmat qilishi ta'kidlanadi.*

Kalit so'zlar: *ona tili, esse, insho, tajriba, ta'lim, faoliyat, nutqiy savodxonlik, o'quvchi.*

Abstract: *The article reveals the importance of using essay and essay technology in native language lessons in developing students' speech. Working on essays and essays shows students ways to develop a scientific worldview and independent thinking skills. It is emphasized that the use of essays and essays in native language lessons serves to improve speech culture and develop thinking.*

Keywords: *mother tongue, essay, experience, education, activity, verbal literacy, student.*

Insho o'quvchilarning atrof-muhitga, boshqalarning xulq-atvoriga va o'z xatti-harakatlariga munosabatlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularning shaxs sifatida rivojlanishi va ma'naviy jihatdan yetuk bo'lishida katta rol o'ynaydi. O'quvchilar o'zlariga berilgan insho mavzusi bo'yicha tanlash erkinligiga ega bo'lib, izlanish, fikrlash va ishlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu jarayonda ular tanlangan materiallarni mantiqiy tartibda joylashtirish, insho mazmuniga mos so'z va iboralarni tanlash ko'nikmalarini o'zlashtiradilar. Ushbu ko'nikmalar o'quvchiga tayyor holda berilmaydi yoki o'z-o'zidan shakllanmaydi, balki o'qituvchi tomonidan tizimli ta'lim va doimiy mashqlar orqali ularning ongiga singdiriladi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasida do'stona hamkorlik muhitini yaratish shaxsga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etishda muhim hisoblanadi. Bunday muhitda o'quvchilarning huquqlari va erkinliklari himoya qilinadi, ularning imkoniyatlari va ehtiyojlari hisobga olinadi. O'zaro tenglik tamoyiliga asoslangan bu jarayonda badiiy muammolar hamkorlik, demokratiklik va bag'rikenglik prinsiplari asosida hal qilinadi. Natijada, o'quvchilar oddiy bilim oluvchilar sifatida emas, balki ta'lim-tarbiya jarayonining teng huquqli ishtirokchilari sifatida faoliyat yuritadilar. Ushbu paragrafda bu masalalar atroflicha yoritilgan.

Insho yozish jarayonida o'quvchilar o'z hayotiy tajribalari, maktab ta'limi va mustaqil kitobxonlik orqali to'plangan bilimlarini saralaydilar, mavzuga mos ma'lumotlarni tanlab, unga mos kelmaydiganlarni e'tiborsiz qoldiradilar va insho

mavzusini ishonchli tarzda yoritishga intiladilar. Ular materiallarni mantiqiy tartibda joylashtirish va mazmuniga mos soʻz va iboralarni tanlash koʻnikmalarini rivojlantiradilar.

Har bir oʻqituvchi, xususan, adabiyot oʻqituvchisi har bir oʻquvchining shaxsiy xususiyatlari, intellektual imkoniyatlari, qiziqishlari va intilishlarini bilishi zarur. Insho yozish jarayonida oʻquvchilar adabiy asarlar qahramonlarini oʻziga xos tarzda qabul qiladilar va ularning xatti-harakatlariga turlicha munosabat bildiradilar. Oʻquvchilarning individual xususiyatlarini bilish adabiyot oʻqituvchisining faoliyatida katta ahamiyatga ega boʻlib, bu masalalar psixologik va pedagogik manbalar asosida yoritilgan. Shu asosda, adabiyot darslarida insho yozish metodikasini ishlab chiqishga harakat qilingan va bu borada tegishli xulosalar keltirilgan.

Insho yozishda oʻquvchidan oʻz shaxsiy fikrlarini ifodalash, materiallarni toʻplash va tizimlashtirish, insho rejasini tuzish, fikrlar oʻrtasida mantiqiy bogʻlanish oʻrnatish, mos soʻz va iboralarni tanlash, gaplarning tuzilishi va ularning oʻzaro bogʻlanishini aniqlash, imlo nuqtai nazaridan tekshirish kabi murakkab harakatlar talab qilinadi. Bu jarayon oʻquvchidan nafaqat aqliy salohiyatini ishga solishni, balki oʻz intellektual faoliyatini boshqarish malakasini ham talab qiladi. Buning uchun zarur boʻlgan topshiriqlar tizimi tavsiya etilgan.

Maktab insholari turli turlarga boʻlinadi: taʼlimiy, nazorat, ogʻzaki, yozma, adabiy, erkin, tasviriy, rivoyat, muhokama, shaxsiy kuzatishlarga asoslangan, maxsus, tasodifiy, tashkillashtirilgan, rasmlar asosidagi, ilmiy va ilmiy-ommabop asarlar yuzasidan yoziladigan, eshitilgan voqealar asosidagi, oʻxshashlik va namunalar asosida yoziladigan insholar. Ular maqsad, shakl, mavzu, usul, janr va bajarilish joyiga qarab tasniflanadi. Insholarning qirqdan ortiq turi tavsiya qilingan boʻlib, ularni tashkil etishda qoʻyiladigan metodik talablar ham keltirilgan. Insholarga xos yetakchi va ikkinchi darajali xususiyatlar aniqlanib, alohida mavzular misolida amaliy namunalar taqdim etilgan.

Insholarni tashkil etishning amaliy koʻrinishi “Polaponni qutqarish”, “Ekin uchun foydali va zararli jonzoʻtlar”, “Birinch qor” va “Dalada” kabi mavzularda ogʻzaki insholar misolida koʻrsatilgan. “Think and write” usuli oʻquvchilarni tanlangan mavzu boʻyicha fikrlarini rivojlantirishga, shaxsiy qarashlarini shakllantirishga va oʻzlarini qiziqtirgan yoki hayajonlantirgan masalalarni ifodalashga undaydi. Bu esa oʻquvchilarni adabiyot bilan yaqindan tanishtiradi, ularning shaxsiyati, bilimlari va dunyoqarashini namoyish etishga yoʻnaltiradi.

5–9-sinflar misolida quyidagi insho turlari taqdim etilgan: “Husniyabonu” ertagi qahramoni asosida portret-insho (5-sinf); Mirtemirning “Toʻrgʻay” sheʼri asosida yangi badiiy matn-insho, “Toshbaqa va Chayon” masali asosida insho-ertak, “Bemor” hikoyasi asosida tasviriy insho, I.Yusupovning “Qadrdon soʻqmoqlar” sheʼri asosida ijodiy insho, “Maymun-malika” va “Zar kokilli yigit” ertaklari syujet chizigʻi asosida qiyosiy insho (6-sinf); Asqad Muxtorning “Bir tup oʻrik...” sheʼri asosida qiyosiy-ijodiy insho (7-sinf); “Men sevgan adabiy qahramon”, “Men yoqtirgan sheʼr”, “Men

yoqtirgan sahifa” mavzularida adabiy insho, A. Muxtorning “Chinor” romani asosida “Qo’rquv, inson va jamiyat” mavzusida muhokama insho (8-sinf); “Farhod timsoliga tavsif” mavzusida nazorat inshosi (9-sinf). Ushbu namunalar o’quvchilarni turli shakl, maqsad, janr va uslubda insho yozishga yo’naltiradi. Taklif etilgan usullar ilmiy-nazariy va amaliy-metodik jihatdan yoritilgan. Maxsus modullar syujet chiziqlari va jadvallar orqali taqdim etilgan, bob mazmuni bo’yicha xulosalar chiqarilgan.

Rossiya Federatsiyasida insho va bayonlarga ikki baho qo’yiladi: biri mazmun va nutqning adabiy mahoratiga, ikkinchisi esa orfografik, punktasion va grammatik savodxonlikka qarab. O’zbekistonda ham maktabni bitirish yoki oliy ta’lim muassasalariga kirish imtihonlarida insholar ona tili va adabiyot bo’yicha bilim, savodxonlik, mustaqil tafakkur va mavzuni yoritish sifati asosida baholanadi. Ikkala jihat – xatolar va mazmun – hisobga olinib, ikki baho qo’yiladi.

Adabiyot darslarida insholar o’quvchilarning ma’naviy sog’lomligi, mustaqil tafakkuri, fikr izchilligi va shaxsiy munosabatini shakllantirish maqsadida tashkil etiladi. Baholashda o’quvchining fikr mustaqilligi, kompozitsiya yaxlitligi, original qarashlari va dalillarning o’rinlilikiga e’tibor qaratiladi. Inshoning hajmi me’yordan ortiq bo’lsa ham, bu yuqori bahoga asos bo’lolmaydi. Agar mavzu mazmunan ochilmagan bo’lsa, boshqa jihatlardan yaxshi yozilgan bo’lsa ham, ijobiy baho qo’yilmaydi.

Insholarni baholashda quyidagilar hisobga olinadi: mavzuga moslik, epigrafning mosligi, reja asosida mantiqiy bog’lanish, materialning izchil bayon etilishi, insho qismlarining mutanosibligi, ko’chirmalarning o’rinli ishlatilishi, dalillarning to’g’riligi, fikr chalkashliklarining yo’qligi, mavzuning ochilish darajasi va xulosalarning asoslilikidir.

Ona tili darslarida savodxonlikni oshirish uchun ko’proq insho yozdirilsa, adabiyot darslarida tashkil etiladigan insholarda fikr izchilligi, uslub ravonligi, xulosalarning mustaqilligi va shaxsiy munosabatning mavjudligi ta’minlanadi. Baholashda yuqoridagi talablarning mavjudlik darajasiga qarab “5”, “4” yoki “3” baholar qo’yiladi. “2” baho qo’yish masalasida ehtiyotkorlik talab etiladi; agar o’quvchi biror fikr bildirmagan bo’lsa, baholash ochiq qoldiriladi.

Prof. A.Zunnunovning “Adabiyot o’qitish metodikasi” kitobida o’quvchilar inshosidagi tipik xatolar quyidagicha keltirilgan:

1. Insho mavzusining asosiy mohiyatiga e’tibor bermay, ikkinchi darajali masalalarga ko’proq ahamiyat berish.
2. Yozuvchining badiiy uslubi va mahoratini tahlil qilmay, faqat asarlarini sanab, mazmunini qisqacha bayon qilish.
3. Qahramon obrazini tahlil qilishda yozuvchi ilgari surgan asosiy g’oyaga e’tibor bermaslik.
4. Asar tahlilida va obrazlarga xarakteristika berishda mustaqil fikr bildirmaslik.
5. Insho mavzusini reja asosida izchil yoritmaslik.

Shu asosda, insho yozishda mavzuning mohiyatini anglash, yozuvchi g'oyasi haqida fikr yuritish, obrazlarga xarakteristika berishda mustaqil fikrga ega bo'lish, fikrlarning izchilligi va muhimni nomuhimdan ajratish inshoni baholashda asosiy mezon hisoblanadi.

Inshoning tili, imlo va ishora xatolaridan ko'ra, mazmuni, fikrning ahamiyatliligi, ijodkorligi, o'quvchining mustaqil munosabati va dalillar muhimroq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Сафарова Р.Г. Шахсни шакллантириш омиллари\\ таълим тараккиёти Ж.. 2001. -Б.60-63.
2. Атакулова Н.А. Таълим жараёнида ук,увчиларда илмий дунёкарашни шакллантириш. Монография.-Т. 2016.- Б.11.
3. Газиев Э.Г.Управление учебной деятельностью школьников.-Т., Фан,1986.-С 66
4. Рахимов Б.Х. Талаба ёшларни илмий тадқиқот ишларига юналтиришнинг ижтимоий педагогик асослари. монография. Т.Фан.2007.Б 11.-20Б.
5. Qodirov M., Ne'matov H., Abduraimova M., Sayfullayeva R., Mengliyev B. Ona tili. Umumiy o 'rta ta'lim maktabilarining 8- sinfi uchun darslik. To'rtinchi nashr. Toshkent. -2019. -142-b.